



JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-iyun




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasid an.

2023- yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **7754** tani tashkil etib, Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **104** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **7650** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-iyun oyida chakana savdo tovar aylanmasi **3652,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **104,7 %** ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **262,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **135,9 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3389,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **102,9 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **996,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,9 %**) tashkil etdi.


	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	3652,0	104,7	262,4	135,9	3389,6	102,9
Jizzax sh	867,4	105,0	100,8	99,4	766,6	105,7
<i>tumanlar :</i>	-	-	-	-	-	-
Arnasoy	78,3	72,9	0,9	75,0	77,4	72,9
Baxmal	379,8	107,8	1,8	92,4	378,0	107,9
G'allaorol	366,1	104,9	12,8	100,3	353,3	105,1
Sh Rashidov	435,1	101,8	4,1	178,5	431,0	101,4
Do'stlik	162,5	104,9	1,1	23,5	161,4	107,3
Zomin	427,4	103,9	71,1	120,7	356,3	101,1
Zarbdor	200,6	104,5	1,0	85,3	199,6	104,6
Mirzacho'l	133,0	103,1	0,7	80,6	132,3	103,2
Zafarobod	83,1	101,5	0,8	71,6	82,3	101,9
Paxtakor	275,0	122,6	65,7	13,5	209,3	95,4
Forish	191,4	105,3	1,1	89,0	190,3	105,4
Yangiobod	52,3	104,4	0,5	77,2	51,8	104,8

2023- yilning yanvar-iyun oyida 2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan viloyatning Paxtakor (**122,6 %**), Baxmal (**107,8 %**), Forish (**105,3 %**) va Jizzax sh (**105,0 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3 389,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **102,9** % ni tashkil etdi. Jizzax viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,8** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **35,9** % ga o'sdi va **262,4** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiylashtiruvchi hajmining **7,2** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Baxmal (**99,5 %**), Zarbdor (**99,5 %**) va Mirzacho'l (**99,5 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **7,2 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Paxtakor (**23,9 %**), Zomin (**16,6 %**) va Jizzax shahri (**11,6%**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Jizzax viloyati	2 462,1	102,4
Jizzax sh	4 491,6	102,2
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	1 625,1	71,8
Baxmal	2 267,7	105,5
G'allaorol	1 991,8	102,7
Sh Rashidov	1 826,7	99,2
Do'stlik	2 351,9	103,1
Zomin	2 425,6	101,5
Zarbdor	2 154,5	102,0
Mirzacho'l	2 431,0	101,2
Zafarobod	1 571,8	99,4
Paxtakor	3 450,6	119,8
Forish	1 966,7	103,6
Yangiobod	1 771,6	103,0


2023-yilning yanvar-iyun holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2462,1** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **102,4 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (**4491,6** ming. so'm), Paxtakor (**3450,6** ming. so'm) va Mirzacho'l (**2431,0** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Jizzax viloyati bo'yicha 2023-yilning yanvar-iyun oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **996,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **101,9 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor(dehqon) va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **453,1** mlrd. so'mni (**115,3%**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **543,3** mlrd so'mni tashkil etdi (**67,8 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	996,4	83,4	453,1	115,3	543,3	67,8
Jizzax sh	168,6	119,5	168,4	119,3	-	-
<i>tumanlar :</i>	-	-	-	-	-	-
Arnasoy	1,0	2,5	1,0	27,8	-	-
Baxmal	156,8	94,5	97,2	124,3	59,6	67,9
G'allaorol	126,7	73,0	30,3	103,4	96,4	66,9
Sh Rashidov	65,7	91,5	7,8	-	57,9	80,6
Do'stlik	63,1	70,2	6,8	34,2	56,3	80,4
Zomin	139,5	91,1	64,1	130,5	75,4	72,4
Zarbdor	87,2	61,8	22,6	60,9	64,6	62,2
Mirzacho'l	52,4	88,8	13,3	177,3	39,1	75,9
Zafarobod	-	-	-	-	-	-
Paxtakor	66,7	77,3	24,7	121,1	42,0	63,7
Forish	45,8	84,8	15,0	267,9	30,8	63,6
Yangiobod	22,9	125,8	1,7	130,8	21,2	125,4

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning may oyida viloyatning barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvি o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **453,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**23,6** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 23,6
	Non va non mahsulotlari 10,3
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 7,0
	Tovuq go‘shti 3,7
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 2,8
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 2,5
	Tuxum 4,5
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 10,0
	Ziravorlar 4,4
	Tuzlamalar 0,5
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 0,3
	Nooziq-ovqat tovarlari 3,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023-yilning may oyida, viloyatning barcha tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **114,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **87,4** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **25,6** mlrd. so'mni, otlar – **0,9** mlrd. so'mni, parrandalar – **0,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so'm
 2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	42,8
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	23,1
 1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar	21,5
 Qo'ylar	20,4
 Otlar	0,9
 Echkilar	5,2
 Kurka, o'rdak, g'oz	0,1
 Tovuqlar	0,1
 Quyonlar	0,0
 Qushlar	0,0

**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI
SAVDO AYLANMASI**



2023- yilning yanvar-iyun oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **144,1** mlrd. so‘mga yetdi. 2022-yilning mos davriga nisbatan **105,0** % ni tashkil qildi. Bunda savdo aylanmasining **98,0** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g’ri keldi.


	Jami mlrd. so‘m	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma -lar, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda	Xususiy tadbirkorlik subyektlari, mlrd. so‘m	2022- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	144,1	105,0	140,6	105,0	3,5	105,0
Jizzax sh	56,8	104,0	56,0	104,0	0,7	102,0
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	0,6	109,0	0,5	111,0	0,1	102,0
Baxmal	8,8	109,0	8,5	110,0	0,4	101,0
G’allaorol	10,4	109,0	10,1	109,0	0,3	106,0
Sh Rashidov	33,4	105,0	32,9	105,0	0,5	106,0
Do’stlik	3,0	94,0	2,8	93,0	0,2	106,0
Zomin	10,2	110,0	9,8	111,0	0,4	107,0
Zarbdor	5,3	113,0	5,1	113,0	0,2	106,0
Mirzacho’l	1,3	88,0	1,1	87,0	0,1	99,0
Zafarobod	1,1	96,0	1,0	95,0	0,1	107,0
Paxtakor	4,5	93,0	4,3	93,0	0,2	106,0
Forish	7,5	103,0	7,3	103,0	0,2	106,0
Yangiobod	1,3	96,0	1,2	96,0	0,1	106,0



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1-iyun holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **2431,8** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,7** % ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **646,8** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **85,0** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **1785,0** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **108,0** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Jizzax viloyati	2 431,8	100,0
Jizzax sh	548,5	22,5
<i>tumanlar :</i>	-	
Arnasoy	1,7	0,1
Baxmal	1 151,3	47,3
G'allaorol	48,2	2,0
Sh Rashidov	504,6	20,8
Do'stlik	1,5	0,1
Zomin	158,7	6,5
Zarbdor	-	-
Mirzacho'l	0,1	-
Zafarobod	-	-
Paxtakor	0,5	-
Forish	14,7	0,6
Yangiobod	2,0	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Baxmal tumani (**1151,3** mlrd. so'm), Jizzax shahri (**548,5** mlrd. so'm) va Sh.Rashidov tumani (**504,6** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mld. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1520,9** mld. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **101,0 %** ni tashkil etdi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1382,6** mld. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **110,3 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **90,9 %** ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



2023-yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1520,9** mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **101,0 %** ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **138,3** mlrd. soʻmni (oʼsish surʼati **54,7 %**), kichik biznes va mikrofirmalarining tovar aylanmasi **1382,6** mlrd. soʻmni (oʼsish surʼati **110,3 %**) tashkil etdi.

	Jami mlrd. soʻm	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. soʻm	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1520,9	101,0	138,3	54,7	1 382,6	110,3
Jizzax sh	882,9	113,7	46,7	60,2	836,2	119,7
<i>tumanlar :</i>	-	-	-	-	-	-
Arnasoy	3,9	83,7	-	117,1	3,9	83,5
Baxmal	71,9	72,6	64,7	86,0	7,2	30,3
Gʼallaorol	38,3	173,5	17,0	120,8 m.	21,3	97,1
Sh Rashidov	142,1	97,9	0,1	42,5	142,0	98,0
Doʼstlik	46,8	52,0	9,2	17,0	37,6	105,2
Zomin	221,5	107,4	-	72,3	221,5	107,4
Zarbdor	55,7	100,4	-	85,1	55,7	100,4
Mirzachoʻl	30,7	103,5	0,1	121,7	30,6	103,4
Zafarobod	11,1	106,1	0,1	5,3 m.	11,0	105,7
Paxtakor	4,2	8,3	0,2	0,4	4,0	72,1
Forish	8,3	77,9	0,2	66,3	8,1	78,2
Yangiobod	3,5	65,5	-	2,1 m.	3,5	65,0



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Тел. 72-221-51-26